



## BRICS VA O'ZBEKISTON: GLOBAL JANUB MEHNAT RESURSLARI SHAROITIDA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

**Sharipov Abdushukur**

Renessans ta'lim universiteti,

Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17864055>

**Annotatsiya:** O'zbekiston 2025-yildan BRICS+ formatida rasmiy hamkor davlat maqomini oldi, va ushbu maqom xalqaro hamkorlikda ba'zi imkoniyatlarni ochmoqda. Ushbu maqola O'zbekiston va BRICS mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, xususan, ishchi kuchi, mehnat resurslari va ularning iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatini global janub doirasida tahlil qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, global janub davlatlari o'rtasida o'zaro ishonchni oshirish maqsadida tajribali kadrlar almashunuvi va mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek BRICS mehnat konvensiyasini tashkil etish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** BRICS, O'zbekiston, mehnat resurslari, mehnat kuchi, migratsiya, iqtisodiyot

Bugun jahon tartibotida BRICS mamlakatlari siyosiy va iqtisodiy sahnaga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Dunyoning eng yirik rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega davlatlar birlashgan holda, yildan yilga BRICS bloci ( Brazilya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, va Janubiy Afrika) kengayib, global boshqaruvda yangi mexanizmlarni ishlab chiqarmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, BRICS+ jahon yalpi ichki mahsulotining (PPP bo'yicha) 44 foizini, dunyo aholisining esa 56 foizini tashkil etadi. [1]

Qolaversa, nafaqat savdo va investitsiyalar, balki mehnat resurslari oqimi ham ushbu bloc doirasida asosiy strategik masalalarga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning ushbu BRICS+ doirasidagi ishtiroki mamlakat uchun va mamlakat fuqorolarining chet elda ishlash va malaka oshirish maqsadlarini amalga oshirishlari uchun qo'l keladi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi demografik jihatdan BRICS mamlakatlarining asosiy kuchini tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, BRICS mamlakatlarida mehnatga layoqatli yoshdagilar umumiy aholining qariyb 60 foizini tashkil etadi. Hamkor davlat bo'lgan O'zbekistonda esa mehnatga layoqatli yoshdagi aholi umumiy aholining 56 foizini tashkil etadi.[2] Bu demografik imtiyoz mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston va BRICS mamlakatlari o'rtasidagi tajribali kadrlar va mehnat migratsiyasining hozirgi holatini tahlil qilish, va





mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash, hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

### **Muammo bayoni**

BRICS mamlakatlari o'rtasidagi eng asosiy muammolardan biri – barcha a'zo va hamkor davlatlarning mehnat siyosatini birlashtiruvchi va o'zaro adolatli mehnat migratsiyasining yo'qligidir. Ushbu muammo mehnat migrantlarining chet elda erkin tartibda ishlashiga to'siq bo'lib, hamkor davlatlarni ishonchiga qaysidir ma'noda putr yetishiga sababab bo'lmoqda. Bundan tashqari har bir davlatning milliy mehnat qonunchiligi har hil, bundan doyim ham chet eldan kirib keluvchi ishchi kuchuning xabari bo'lmasligi aniq. Shunday ekan ushbu BRICS a'zo va hamkor davlatlari o'rtasidagi narmativ bo'shliqni ham to'ldirish darkor.


Boshqa tarafdin, BRICS mamlakatlarida ishchi kuchiga talab va takliflari ham turlicha. Aytaylik, Xitoy xalq respublikasi uchun malakali kadrlar kerak bo'ladi, Hindistonda IT mutaxasislari, Rossiya federatsiyasi uchun esa asosan ishchi kuchini taminlab berish kerak.

O'ylardimki mehnat migrantlari yoki malakali kadrlar o'z chet eldagi imkoniyatlaridan foydalana olmayapti. BRICS blocining dunyo miqyosida mavqei ortib borar ekan, masul mamlakatlarning ham bu masalalarda majburiyat va masuliyatlari ortib boradi. Bazan, malaka va diplomlarning tan olishdagi ba'zi cheklovlar, shuningdek ishtimoiy himoya tizimining kamchiliklari, migrantlarning huquqlari himoya qilinishingin sustkashligi, talab va takliflarning nomutanosibliigi BRICS doirasidagi yagona mehnat kanvensiyasini yaratishga turtki bermoqda.

Qolaversa, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO)ning stadartlariga ham moslashish, balki undan ham BRICS imigini dunyo miqyosida oshirish ham kerakdir. Sababi albatta bu masalalarda ham ba'zi geosiyosiy omillar BRICSning raqobatli hamkorligini cheklashi mumkin.

### **Demografik va iqtisodiy kontekst**

Bugun dunyo aholisi deyarli barcha sohalarda rivojlangan va tarraqiyot topgan 21-asrda yashayotganiga qaramay, hali ham ko'plab davlatlarda ish masalasi va tajribali kadrlar yetishmovchiligi jiddiy muammo bo'lib kelmoqda, shu jumladan BRICSga a'zo va hamkor davlatlarda. Albatta buning bir necha sabablari bor, birinchi navbatda inson mehnatiga solishtirganda tezroq va bir necha barobar sifatliroq texnologiyalar taklif etilmoqda. Ikkinchidan, ehtimol davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlik va geosiyosiy sabablar tufayli mehnat bozori tanazzulga yuz tutmoqda.





Buni BRICS namunasida ko'rib chiqsak, BRICS mamlakatlari ichidagi ishchi kuchi masalalariga kelsak, asosan Rossiyaning ishchi migrantlarga ehtiyoji bor, ayniqsa yaqin Markaziy Osiyo davlatlaridan. Bu borada asosan 2023-yil hisobiga ko'ra, O'zbekiston mehnat migrantlarining 72% dan ortig'i aynan BRICS davlatlari, Rossiya va Qozog'istonga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, blocga a'zo bo'lmagan Tojikiston va Qirg'iz respublikasi davlatlarning 80% mehnat migrantlari ko'rsatkichlari ham yuqoriligi bilan, Rossiyaning ishchi resurlariga muhtoj ekanini tasdiqlaydi.[3]

Lekin, Hindiston va Xitoyda esa migratsiya jarayoni tashqi emas, asosan ichki ko'rinishda shakllangan. Ikki a'zo davlatda ham aholi soni juda ko'p va bu arzon ishchi kuchini yaratadi. BRICSga hamkor davlatlar uchun shu jumladan, O'zbekiston uchun ham bu asosiy yo'nalish bo'lmasada, ammo mamlakat boshqa davlatlar uchun eng tajribali mutaxassislarni taklif eta oladi. 2023-yilda Xitoyda mehnatga yaroqli kishilar 61%ni tashkil etgan bo'lsa, Hindistonda esa yaqin kelajakda 64% ni urushi taxmin qilinmoqda.[4] Boshqa tarafda, Xitoy va Hindiston iqtisodiy o'sish qilib turgan vaqtda, Janubiy Afrika sezilarli darajadagi ishsizlik va sust iqtisodiy o'sish bilan yuzlashmoqda. Bu BRICS doirasida turli savdo va investitsiya strategiyalari bo'yicha kelishuvlarga erishishni qiyinlashtirmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, 2010-yil Janubiy Afrikaning ushbu blocga qo'shilishining asosiy maqsadi ham aslida ( Global Janub vakilligini kengaytirish va Janubiy Afrikaning iqtisodiy sohasini global nuqtaga jalb etishdan iborat) edi. 2025-yil 1-chorakdagi Janubiy Afrika statistika xizmati ma'lumotiga ko'ra, 15-34 yoshdagilar mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholining qariyb 50,2% ini tashkil qiladi. Bu taxminan 20,9 million kishi degani. Ularning ichida 15-24 yoshdagilar 10,3 million atrofida. Lekin muammo shundaki, aynan shu 15-24 yoshdagi guruh mehnat bozoriga kirishda eng katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ularning ishsizlik darajasi kattaroq yoshdagilarga qaraganda ancha yuqori.

Bundan tashqari, Brazilya ham o'zining asta rivojlanayotgan iqtisodiyoti bilan BRICSning eng muhim a'zo mamlakatlariga kiradi. 2024-yilga ko'ra, Brazilyada mehnatga layoqatli aholi umumiy aholi sonining 69% ni tashkil etgan. Mamlakat ichki doiralarda ishchi kuchi yuqori, ammo juda kam miqdordagi imigrantlar ish masalasida mamlakatni tark etadi. Eng ahamiyatligi shundaki mavjud imigranlarning barchasi BRICSning hech bir a'zo yoki hamkor mamlakatlarga borishmaydi.





Keltirilgan raqamlarga tayanadigan bo'lsak, Xitoy va Hindiston katta arzon ishchi kuchiga ega, bunga qarama-qarshi ravishda esa Rossiya, Brazilya va Janubiy Afrika davlatlariga ko'proq tajribali kadrlar kerak bo'lmoqda. O'zbekiston holatida esa o'z manfaatlarini inobatga olgan holda, mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish imkoniyati turibdi.

### **Kasbiy imkoniyatlar va diversifikatsiya**


O'zbekiston mehnat muhojirlarini chet elga, asosan Rossiyaga yo'llashini yuqorida takidlab o'tdim. Bundan asosiy sabab ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ishonch va mustahkam aloqalardir. Muntazam Rossiya davlati qo'shni mamlakatlarga ish masalarida imkoniyatlar yaratib kelsa, boshqa tarafdin oxirgi vaqtlarda, uyerda iqtisodiy vaziyatning biroz o'zgargani va barcha migrantlar uchun talablarni qattiqashtiruvchi chaqiriqlari mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilishni taqazo etmoqda. Shu jumladan, BRICS mamlakatlari doirasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun ham, har bir hamkor davlat ehtimol mutaxassislar almashinuvini amalga oshirishi darkor.

Rossiya Federatsiyasiga asosan o'zbek muhojirlari turli hil mutaxassisliklarda, ish masalalarida boradi, bularga masalan qurulish sohalari, transport va logistika sohalari kirishi mumkin. Mehnat migrantlari yuborgan pullar uzoq yillardan buyon O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi, va aynan manashu daromad orqali aholi turmush xarajatlarini qoplaydi. Xususan, 2023 yilda mamlakatga 11,4 mlrd dollarlik pul o'tkazmalari kirib kelgan. Bu yalpi ichki mahsulotning 12,5 foizdan ko'proq qismini tashkil etadi.

Qozog'iston ham yetakchi o'rinlarda, asosan tajribali neft-gaz mutaxassislariga talablari, qishloq xo'jaligi, shuningdek qurulish sohasida yetarlicha ichchi resurslarini talab qiladi. 2024-yil boshida O'zbekistonlik migrantlar Qazog'istonda taxminan 196,800 kishi bo'lgan, yil davomida bu raqam 322,700 ga oshgan. Shuningdek, ushbu davlatdan kelgan mablag'lar ham O'zbekiston iqtisodiyotida Rossiyadan keyingi o'rinlarni egallaydi.[5]

O'zbekiston Respublikasi rasman BRICS+ hamkori bo'lar ekan, endilikda yangi imkoniyatlar va eshiklar ochiladi. Faqatgina yuqoridagi davlatlarga tayanish emas, balki ishchi kuchini boshqa global janub doirasidagi mamlakatlarga ham diversifikatsiya qilsa bo'ladi. Birlashgan Arab Amirliklari, Belorusiya respublikasi, Malayziya, Xitoy va Hindiston, Saudiya Arabistoni davlatlari shu jumladandir.

Buni ikki davlat misolida ko'rib chiqamiz. Xitoy kantekestida, bizga ko'plab texnologik va savdo imkoniyatlar ochiladi, Xitoyning o'zida ishchi kuchi yetarli bo'lgani sababli, bunda biz faqatgina mehnat migratsiyasi emas balki tajribali





mutaxassislar hamkorligini yo'lga qo'ysak bo'ladi. Xitoy o'zining ilg'or texnologiya va mutaxassislarini taklif etar ekan bundan foydalanib, o'zimizning ishchi kuchimizning kasbiy tajribalarini o'shirib, global janub doirasida biz ham rivojlangan davlatlar singari malakali mutaxassislar taklif eta olishimiz maqsadga muvofiqdir. Raqamli innovatsiyalar aynan zamonaviy dunyoda mutaxassislar hamkorligining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgani sababli ham, ikki davlat bu orqali o'zaro ishonch va do'stlik aloqalarini mustahkam qilishi mumkin.

Qolaversa, dunyo bo'ylab IT va Tibbiyot bo'yicha Hindistonning ham tajribasi ortib borar ekan, o'zi uchun tajribali mutaxassislarni ham jalb etadi, ham o'zining mutaxassislik bilimlarini taklif etadi. Mamlakat ichida asosan kompaniyalar mahalliy kadrlardan foydalanadi, chet ellik ishchilar ulushi deyarli 1%, asosan mamlakat mutaxassislarni chet elga yuboradi. O'zbekiston uchun esa yangi xalqaro talablarga javob beradigan texnologiya va sog'liqni saqlash sohalaridan mutaxassislar kerak, buni esa birgalikda ishchi kuchi almashinuv hamkorliklarini yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin. Aytaylik tibbiyot sohasida, asosan bemorlarni davolashga O'zbekiston Hindistonning tajribali doktorlar kuchiga tayanib qolgan. Aholi o'rtasida bo'ladigan ba'zi tibbiy yordam, yani olaylik operatsiya qilish. Ko'p hollarda O'zbekistonlik shifokorlarning ko'pi turli hil tibbiy operatsiyalarda tajribaga ega emas. Natijada bemorlar ba'zan Hindistonga yuboriladi, va bunday hollarda bemor judda ham ko'p vaqt yo'qotadi. Tadqiqotlarga ko'ra, Hindistondagi sog'liq xodimlarining (taxminan 20-50% ishchi) xorijga kasb masalasida chiqishni reja qiladi.[6]

Shu sababdan mamlakat birgalikda qo'shma dasturlar yaratishi kerak, muntazam ishlovchi xodimlarni O'zbekistonga jalb qilish va o'z mutaxassislarimizni ham homkor davlatlarga yuborib tajribalar olib kelishiga imkon yaratishimiz darkor. Tajribali mutaxassislarning bo'lishi BRICS mamlakatlarning iqtisodiyotini yanada oshirishga va BRICS blocining o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo'shadi. Qo'shimcha qilganda shuningdek, zero biz BRICS markazida bir hamkorlik yaratar ekanmiz, faqat iqtisodiy foyda emas balki, geosiyosiy manfaatlarga ham diqqat qaratganimiz foydadan holi emas.

### **BRICS mehnat konvensiyasi va siyosiy tamoyillari**

Bilamizki BRICS doirasida ishchi kuchi, mehnat resurlari va mutaxassislar almashinuvini tartibga soluvchi yagona kanvensiya mavjud emas, rasmiy uchrashuvlar umumiy deklaratsiya darajasida qolib ketyapti, aniq ijro mexanizmlari esa ishlab chiqilmagan. Ko'pincha a'zo davlatlar o'z milliy qonunchiligi va yoki xalqaro standartlarga tayangan holda faoliyat olib





bormoqda. Shu sababdan ham mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonchni va hamkorlikni mustahkamlash uchun yagona BRICS Mehnat Kvensiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchidan, BRICS Mehnat Kanvensiyasining taklif etishi mumkin bo'lgan yagona minimal standartlar bular - ish haqi, ta'til kunlari, talablarga javob beradigan mehnat sharoiti va eng muhimi hamkorlik o'rnatgan davlat mehnat migrantlarga teng imkoniyatlar keltirishi. Masul shaxslar hattoki kichik detallarga ham etibor berar ekan bu BRICS doirasidagi qilingan ushbu ishni ishonchli bir natijasini namoyon eta oladi.

Ikkinchidan, yagona platforma bo'lishi ham kirib keluvchi va tark etuvchi mehnat muhojirlariga BRICS doirasida masuliyatli va samarali ishlashiga yordam beradi. Ba'zi holarda migrantlar tashrif buyurgan mamlakatining tilini professional darajda bilmasligi va yoki mezbon mamlakatda uning yaqini bo'lmasligi mumkin, qolaversa BRICS doirasida ham hali umumiy til mavjud emas shu sababdan ham, ish beruvchi va mehnat muhojiri haqidagi ma'lumotlar almashinuvini ulashib turish zarur.

Uchunchidan, mehnat migrantlari va mutaxassislar almashinuvi uchun kanvensiyada ko'plab imkoniyatlar yaratilar ekan, albatta ularni tartibli saqlash uchun ma'lum bir cheklovlarni ham qo'llash darkor. Buning uchun esa huquqiy yordam uchun bepul advokatlar xizmatini joriy etish kerak. Natijada kanvensiyaning tashkil etilishi va qoidalarning a'zo davlatlar o'rtasida amalga oshirilishi kelajakda bo'lishi mumkun bo'lgan ziddiyat va tushunmovchiliklarni oldini oladi. Yani, mehnat migrantlari hech qanday qonunlarni chetlab o'tmaydi, agar buni qilgan taqdirda ham belgilab qo'yilgan normalar asosida jinoyatga tortiladi.

Misol uchun, bugun migratsiya masalasi Rossiyada dolzarb muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Mamlakat qonunchiligi, xavsizlik yuzasidan barcha migrantlarga ba'zi cheklovlarni joriy etmoqda. "Rossiyaga ishlash uchun borgan mehnat migrantlarining oylik maoshidan ortiq miqdordagi pulni vataniga o'tkazishni taqiqlovchi qonun loyhasi Davlat dumasiga ko'rib chiqish uchun kritildi" - bu haqda TASS xabar qiladi. Shuningdek, "Mehnat muhojirlarining salmoqli qismi iqtisodiyotning norasmiy sektorida band. Ularning ko'pchiligi soliq to'lamaydi. Davlat byudjeti katta miqdorda soliq tushumlaridan mahrum bo'lmoqda", deya takidlagan "Yangi Odamlar" fraksiyasi deputatlari.[7]

Agar BRICS Mehnat Kanvensiyasi tuzib chiqiladigan bo'lsa, shu kabi qarorlarni Mamlakatlar o'zi uchun tahdid sifatida emas bali hakmorlik yo'lidagi taraqqiyot deya qabul qilishi mumkun. Yani, hech qanday ish faoliyati yoki





aylanadigan kapitallar noqonuniy deb qaralmaydi, ikki davlat xavsizligi va hamkorligi yomonlashmaydi. Barcha qonun qoidalar aynan kanvensiya asosida yuritiladi. Shu bilan birga nafaqat O'zbekiston bilan ishchi kuchi almashinuvi yaxshilanadi, balki boshqa BRICS mamlakatlari o'rtasidagi mutaxassislar almashinuvi amalga oshirilib, gigant azo davlatlar mintaqadagi o'z o'rnini mustahkamlaydi.

### **Xulosa**


O'zbekiston va BRICS mamlakatlari o'rtasidagi ishchi kuchi, mehnat resursari va mustahkam hamkorlik katta salohiyatga ega bo'lib, bu imkoniyatlar BRICS mamlakatlari bo'ylab iqtisodiy va geosiyosiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu rivojlanish yo'lida demografik imtiyozlar, texnologik rivojlanish va shuningdek mamlakatlar o'rtasidagi ishonch birlashish jarayonini tezlashtiradi, va BRICS blocini tashkilot miqyosiga chiqaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi hamkorlik darajasi imkoniyatlarga nisbatan past bo'lib, ko'proq aniq mexanizm va tizimlarni talab qiladi. Shu sababdan ham mehnat migratsiyasini butun global janub doirasida qonuniy va adolatli tartibga keltirish uchun yagona BRICS Mehnat Kanvensiyasini joriy etish darkor. Taklif etilgan siyosiy tafsiyalarni amalga oshirish orqali, butun global janub mamlakatlari uchun qulay mehnat resurslaridan foydalanish imkonini yaratish mumkun.

Shu bilan birga O'zbekiston va BRICS hamkorligi mustahkamlanadi, soddalashtirilgan visa rejimlari yo'lga qo'yiladi, o'zbek mehnat mohojirlari chet elga turli xil yo'nalishlarda ishga borishi va rivojlangan davlatlar bilan o'zaro tajribali kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish istiqbollari ortadi. Bu esa O'zbekistonni yangi iqtisodiy va geosiyosiy bosqichga olib chiqadi. Nafaqat bu rivojlanishlar O'zbekiston uchun samarali, qolaversa butun BRICS azo davlatlari uchundir ham.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Geopoliticaconomy ;<https://geopoliticaconomy.com/2025/07/04/brics-expansion-population-gdp-vietnam>
2. Milliy statistika qo'mitasi; [https://t.me/statistika\\_rasmiy/6184](https://t.me/statistika_rasmiy/6184)
3. Qalampiruz; <https://qalampir.uz/en/news/migrantlar-bulmasa-uzbekistonning-%D2%B3oliga-voy-zha%D2%B3on-banki-115613>
4. Natonal Bureau of Statistics of China; [https://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202402/t20240228\\_1947918.html](https://www.stats.gov.cn/english/PressRelease/202402/t20240228_1947918.html)





5. Ministry of labor and Social protection of population of the Republic of Kazakhstan;

<https://www.gov.kz/memleket/entities/enbek/press/news/details/963435>

6. Migration policy institute;

<https://www.migrationpolicy.org/article/global-demand-medical-professionals-drives-indians-abroad>

7. <https://tass.ru/obschestvo/25006605>

